

Davomi 3-betda



■ Sarhisob

TARAQQIYOT YO‘LIDAGI YANGI BOSQICH



❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda Avtomobil transporti boshqarmasi jamoasi bajarayotgan ish hajmi kengayib bormoqda. Boshqarmaga 2025-yilda 40 dan ortiq har xil turdagi yangi kon texnikalari olib kelindi. Avtoag'dargichlar bosqichma-bosqich 220 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatli "CAT-793D" va "HITACHI EH4000AS-3" rusumli zamonaviy texnikalarga almastirilmoqda. Yaqinda yana yuk ko'tarish quvvati 254 tonna bo'lgan 10 ta "Komatsu 860E-1K" rusumli avtoag'dargichlar olib kelindi. Bu texnikalar mutaxassislarimiz tomonidan yig'ilib, "Muruntov" konida foydalanishga topshirildi. Yangi yilda yana 40 dan ortiq turli xil yangi kon texnikalari keltirilishi rejalashtirilgan. Avtotransport parki yangilanishi natijasida joriy yilning o'tgan davrida kunlik tashilgan kon massasi hajmi 2024-yilga nisbatan 41 foizga oshdi. "Muruntov" konidan 120 mln. kubometr tog' jinslarini tashish hamda yoqilg'i - moylash materiallari va ehtiyot qismlarini tejash hisobidan iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

"Muruntov" konida ochish ishlarini jadallashtirish va foydali qazilma qazib olishni ko'paytirish uchun "ELLIPS UDP" MChJ, "MR CONSTRUCTION AND ENGINEERING GROUP" MChJ, "DDMAX TRANS SERVIS" MChJ autsorsing kompaniyalarining ishlab chiqarish quvvatlari ham safarbar etilgan. Autsorsing kompaniyalari kovush sig'imi 2,2 kubometrda 10 kubometrgacha bo'lgan ekskavatorlar, shuningdek, turli ishlab chiqaruvchilarning yuk ko'tarish quvvati 25 tonnadan 150 tonnagacha bo'lgan karyer avtoag'dargichlaridan foydalanmoqda. Hozirgi paytda 44 dona ekskavator, 190 ta avtoag'dargichlar ishlatilmoqda.

Autsorsing kompaniyalari tomonidan qazib olingan va tashilgan kon massasi hajmi sutkasiga o'rtacha 159,4 ming kubometrni tashkil etyap-

ti. Joriy yil yakunida "Muruntov" koni bo'yicha bu raqam 12,8 million kubometr bo'lishi kutilmoqda. Kelgusi yilda autsorsing kompaniyalari oldiga 80 million kubometr kon massasini qazib olish va tashish, ish hajmini 2025-yilga nisbatan 6,25 barabarga oshirish vazifasi qo'yildi. Kon massasini qazib olishning ko'payishi shunga mos ravishda burg'ilash ishlari hajmining oshishiga olib keldi. Bu ishlarni bajarishga "STROY IZISKANIYA" MChJ pudratchi tashkiloti jalb etildi. Autsorsing kompaniyasi burg'ilash ishlari uchun 15 ta burg'ilash stanoklaridan foydalanyapti. 2025-yilda autsorsing kompaniyasi tomonidan 790 ming pogon metr, 2026-yilda esa 4 million 200 ming pogon metr burg'ilash ishtarini bajarish, ya'ni 528 foiz o'sishni ta'minlash rejalashtirilgan.

"Muruntov" konida yangi texnikalar sotib olish ham, autsorsingni qo'llash ham ma'dan bloklarini jadal sur'atlarda ochish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni belgilangan darajada saqlab qolgan holda foydali komponent ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining oltin tarkibli ma'danni qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish quvvati jihatidan eng yirik korxonasi hisoblangan 2-gidrometallurgiya zavodida qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. 2025-yilda zavodning sorbsiya va regeneratsiya sexlarida qo'shimcha 30 ta sorbsion uskunalar, quyultirish sexida 2 ta quyultirgich qurish, 16-nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish, maydalash sexining ikkinchi binosini kengaytirish va sexning ikkinchi navbati loyihasi asosida 33-tegirmon blokini montaj qilish ishlari olib borildi. Bunday qurilish-montaj ishlari to'liq yakunlanib, kelgusida korxonaning yillik quvvati 60 million tonnaga yetkaziladi.

Yakunlanayotgan yil 7-gidrometallurgiya zavodida ulkan buyodkorlik ishlari amalga oshirilgan zalvorli yil sifatida tarixga muhrlanyapti. Zavodda 2025-yilda to'rtta yangi tegirmon bloklari o'rnatilib ishga tushirildi va tegirmonlar soni o'n ikkitaga yetkazildi. Zavod foydalanishga topshirilgan ilk davrda korxonaning qayta ishlash quvvati 15 million tonna bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilda 26 million tonnadan oshiriladi. Yana bir quvonarli jihati shundaki, zavoddagi barcha ehtiyot qismlar mahalliyashtirilgan bo'lib, Navoiy mashinasozlik va Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodlarida tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodi nafaqat Markaziy kon boshqarmasi, balki kombinat bo'linmalari uchun ham zarur jihozlar va moslamalarni o'z vaqtida, sifatlari ta'mirlash va tayyorlab berishga xizmat qilmoqda. Investitsiya dasturi doirasida loyihalarining amalga oshirilishi, yangi korxonalar barpo etilishi hamda qo'shimcha quvvatlar ishga tushirilishi natijasida zavod mahsulotlariga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Korxonada 2025-yildan boshlab 9 ming turdagi mahalliyashtirilgan,



import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. Zavod jamoasining mehnati natijasida korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi bir yilda 70 milliard so'mlikka ko'payib, 2025-yilda 270 milliard so'mlikka yetkazildi.

Investitsion loyihalarni ro'yogba chiqarish yuzasidan olib borilayotgan keng ko'lami ishlarda Tashqi suv ta'minoti birlashgan energo-xizmatining ham o'z o'rnini bor. Aholini hamda korxonalarni suv bilan ta'minlashda "Amudaryo-Zarafshon" suv quvuri muhim ahamiyatga ega. Yakunlanayotgan yilda mazkur suv quvurining uchinchi suv tarmog'ini tortish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish investitsion loyihasi bo'yicha qurilish ishlari yakunlanib, obyekt to'liq quvvatda foydalanishga topshirildi. Zarafshon qurilish boshqarmasi tomonidan 158,9 kilometr uzunlikdagi metall quvurlar yotqizildi, 7 ta nasos stansiyasida kengaytirish ishlari olib borilib, qo'shimcha 12 ta nasos agregati o'rnatildi.

Temir yo'l transporti boshqarmasi jamoasi har bir ishchi-xodimining mehnati e'tirofga munosib ekanligini ta'kidlamogochman. Boshqarma mahalliyashtirish dasturi jiroi bo'yicha Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham yetakchilardan sanaladi. Birgina boshqarmaning vagon xo'jaligi ishchi-xizmatchilari, muhandis - texnik xodimlarining jamoaviy mehnatlari samarasi o'laroq keyingi yillari mobaynida mahalliyashtirish dasturi bo'yicha jami 97 ta vagonning xizmat muddati uzaytirilib, 58 milliard 565 million so'm iqtisod qilishga erishildi. Ushbu vagonlardan bugungi kunda Temir yo'l transporti boshqarmasida muvaffaqiyatli foydalanilmoqda va natijada vagonlarni navbatdan tashqari ta'mirlash ishlari jalb etilishi oldingi yillarga nisbatan qariyb 70 foizga qisqardi. Ag'darma-vagonni chetdan xarid qilish narxi 3,3 mlrd so'mdan ortiqroq bo'lsa, uni vagon

xo'jaligi mahalliyashtirish sexida yig'ish uchun 522,3 mln so'm sarflanyapti xolos. Hozirgi kunda ag'darma-vagonlarni chetdan sotib olish uchun sarflanadigan mablag' evaziga vagon xo'jaligining lokalizatsiya sexida 6 ta ag'darma-vagonni yig'ish imkoniyati yaratildi. Yaqin yillargacha vagonlar uchun talab etiladigan ehtiyot qismlar katta mablag'lar hisobiga chetdan keltiriladi edi. Hozirgi kunga kelib vagonlarni ta'mirlash uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlarni Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlash yo'lga qo'yilib, valuta chetdan sotib olinuvchi ehtiyot qismlarni 70 foizga qisqartirishga erishildi.

2025-yilda "NKMK" AJ balansidagi barcha temir yo'l va strelkali o'tkazgichlarni rejali kapital ta'mirlash va yangidan qurish ishtarini sifatlari va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash maqsadida Yo'l xizmati negizida "Yo'llarni kapital va o'rta ta'mirlash" uchashtasi tashkil etilib, 20 ta qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratildi. Temir yo'l transporti boshqarmasi 2-gidrometallurgiya zavodiga ma'dan yetkazib berish rejasini 100,1 foizga, qo'shimcha yuklarni tashish rejasini 103,7 foizga bajardi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, 195,834 kilometr masofadagi temir yo'llarda 55,6 million tonnaga yaqin ma'dan va turli xo'jalik mahsulotlari tashilgan.

Kombinatning eng asosiy va yirik bo'linmasi bo'lgan kon boshqarmamiz jamoasi oldida turgan vazifalarni bajarish oson kechmayapti. Bugun har bir sohada olib borayotgan ishlarimiz haqida har bir bo'linma misolida ko'p gapirishim mumkin. Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz faqat oldinga qarab boryapmiz. Belni mahkam bog'lab, siddiqildan mehnat qilib, barcha sohalarida yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdamiz. 2025-yilda 83,7 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarib, rejani 100,2 foizga bajardik.

K o m b i n a t rahbariyati va kasaba uyushmasi Kengashining yordami bilan ijtimoiy muammolar ham muvaffaqiyatli hal etilmoqda. Qizilqumning inqilq iqlim sharoitida mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida Avtomobil transporti boshqarmasi hududida 500 o'rinni oshxona qurilib, foydalanishga topshirildi. Oshxona nafaqat Avtomobil transporti boshqarmasi ishchi-xodimlari, balki 2-gidrometallurgiya zavodi, "Muruntov" koni, 7-avtokorxona ishchi-xodimlariga ham xizmat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, boshqarmaning asosiy ishlab chiqarish korxonalari "Beshapan" maydonida joylashgan. 2025 yilda mehnatkashlarni Zarafshon shahridan "Muruntov" stansiyasiga olib borish va olib kelish uchun 15 ta keng, shinam, zamonaviy ko'rinishga ega, konditsioner va isitish tizimlari, televizorlar bilan jihozlangan, 110 o'rindiqli yangi yo'lovchi vagonlar keltirildi. "Beshapan" sanoat maydonida joylashgan korxonalarga qatnab ishlayotgan ishchilarning issiq va sovuq kunlarda transport kutishlari uchun kapital ta'mirlangan zamonaviy temir yo'l va avtobus bekatlari foydalanishga topshirildi. Beshta kutish zalidan iborat ushbu bekatlarga yumshoq o'tirgichlar, televizor va konditsionerlar o'rnatildi. Kon va korxonalariga qatnaydigan ishchi - xodimlar uchun yaratilayotgan bu kabi shart- sharoitlar kombinat rahbariyatining mehnat jamoasiga g'amxo'rligining namunasidir.

Yil davomida boshqarmamizdagi o'ta mas'uliyatli va salohiyatli mutaxassislarimizdan 30 nafari turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. 16 nafari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati faxriysi" degan nomga munosib ko'rilgan bo'lsa, davlatimiz rahbarining farmoni bilan 2 nafar xodimimiz davlat mukofotlari "Mehnat shuhrati" ordeni va "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Tinch yurtga bayramlar yarashada, 2025-yil kelgusida yangi dovonlarni zabt etishimizga mustahkam poydevor yaratdi. Ahil jamoamizning sa'y - harakati, rahbariyatimizning qo'llab-quvvatlashi va yuksak ishonchi, bilan yangi yilda yanada salmoqliroq natijalarga erishishimizga ishonaman.

Kombinatimiz ahil jamoasini kirib kelayotgan Yangi – 2026-yil bilan muborakbod etaman.

Otabek MUSTAKIMOV,
Markaziy kon
boshqarmasi direktori.



❏ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Joriy yilda yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2024-yilga nisbatan 117,5 foiz darajaga o'sdi. Kelgusida ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish uchun 5-gidrometallurgiya zavodi negizida "Nuqrakon", "Kosmanachi" va "O'qetmas" konlarida kumush tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish ko'zda tutilgan. Kuzatilayotgan yilda shimolliklar oltin ishlab chiqarish miqdorini o'tgan yilgiga nisbatan qariyb 5 tonnaga oshirishga erishdilar.

Kon boshqarmasi mutaxassislarining tashabbuskorlik g'oyalari g'ayalari muvofiq hamda Navoiy mashinasozlik zavodi jamoasi bilan hamkorligimiz natijasida "Dovg'iztov" konida yirik o'lchamdagi texnologik qurilma – Davriy uzluksiz texnologiya, "Auminzo-Amontoy" va "Turbay" konlarida mexanik qurilmalar, "Auminzo-Amontoy" maydonida termik ishlov berish va mexanik yig'uv uchastkasi ishga tushirildi. 2025-yil davomida kon boshqarmasida mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida 26 ta loyiha bo'yicha 22 milliard 145,4 million so'mlik 1284 dona va import o'rmini bosuvchi 3,6 milliard so'mlik 619 dona mahsulot ishlab chiqarildi. Bu chora-tadbirlar asosiy texnologik uskunalar uchun xorijdan keltiriladigan ehtiyot qismlarga sarflanadigan valutaning sezilarli darajada tejashiga olib keldi.

Bunyodkorlik xalqimizga xos fazilatdir. Shimoliy kon boshqarmasiga qarashli obyektlarda investitsiya loyihasi va kapital qurilish bo'yicha "Manzilli qurilishlar dasturi" doirasida belgilangan vazifalar 139,6 foizga bajarildi. Jumladan, "Qoqpatas" va "Dovg'iztov" oltin

konlarida ma'dan qazib olish III bosqich loyihasi" asosidagi ishlar samarali bo'ldi. 3-gidrometallurgiya zavodining uch sekiyalı gradirniyasi binosini qurish loyihasi va besh sekiyalı gradirniyasi binosining qurilish-konstruksiya ishlari hamda chiqindilar poligonining III navbat 3-bosqich qurilish ishlari to'liq yakunlanib, foydalanishga topshirildi. Zavodning flotatsiya, biooksidlash, filtrlash, quritish va kuydirish sexlari kengaytirildi. Biooksidlash sexining 9, 10-modullari qurilib, amaldagi 48 dona bioreaktor qatoriga yana 12 dona shunday qurilma qo'shildi. Natijada, sulfid konsentratlari ishlab chiqarish hajmi 25 foizga, yarim tayyor mahsulot hajmi 12 foizga oshirildi. "Auminzo-Amontoy" konidagi oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash konini qurish loyihasi", 5-gidrometallurgiya zavodi "1-chiqindilar xaritasining II bosqichini qurish loyihasi" hamda "Yo'l-transport va muhandislik infratuzilmalarini qurish loyihasi" doirasida keng qamrovli qurilish-montaj ishlari yakunlandi. "Turbay" konini o'zlashtirish bo'yicha tog'-kon va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish loyihasi" ijrosini ta'minlash uchun kon hududidagi obyektlarda bir qator bunyodkorlik va yoqilg'i-moylash materiallari temir yo'l ombori uchastkasining qurilish-montaj ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirildi. 3-gidrometallurgiya zavodida ishlab chiqarish hajmining ortishi munosabati bilan qo'shimcha texnik suvga bo'lgan ehtiyojni qondirish hamda Amudaryodan olinadigan suv resurslarini tejash maqsadida, "Beshbuloq" suv inshootida 3-gidrometallurgiya zavodiga suv yetkazib berish yo'lga qo'yildi. "Beshbuloq" va Suvni yarim yuza-ga ko'tarish kompleksida qo'shimcha 10 ta quduq, 2 ta nasos stansiyasi, 4 dona 700 kubometrik suv saqlash rezervuarlari qurildi hamda "Beshbuloq"dan bosimli zaxira suv omborlarigacha 21 kilometr uzunlikda quvur tortildi. Natijada, 2024-yilga nisbatan qo'shimcha 1 804 427 kubometr texnik suv ishlab chiqarilib, korxonamizga 12,982 mlrd so'm miqdorida iqtisodiy foyda keltirildi. Bundan tashqari, "Kombinat ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish loyihasi" bo'yicha yuk ko'tarish quvvati 90 tonna bo'lgan avtoag'dargichlar, burg'ilash uskunalar, gidravlik va elektr ekskavatorlar, yuk ko'tarish quvvati 16 va 25 tonna bo'lgan avtokranlar, vaxta mashinalari,



YORUG' YUZ BILAN

kombinatsiyalangan yo'l mashinasi, teleskopik yuklagich, Tez yordam mashinasi, ta'mirlashga mo'ljallangan maxsus jihozlangan avtotransport vositasi va boshqa yordamchi texnikalar olib kelindi. "Shimoliy kon boshqarmasi yordamchi ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash II bosqich loyihasi" bo'yicha Tarmoqlar va podstantsiyalar sexi, Ta'mirlash-mexanika sexi, Elektr jihozlarini ta'mirlash uchastkasi va "Uchquduq" Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari markaziga soha faoliyati uchun zarur bo'lgan texnologik uskuna va jihozlar keltirildi. Yuklarni belgilangan manzilga o'z vaqtida yetkazishda qon tomir vazifasini bajaruvchi temir yo'l tarmoqlari yangilandi, xususan, 2025-yilning mart oyida 3-gidrometallurgiya zavodi ma'dan qabul qilish bunkeridan zavod stansiyasigacha uzunligi 1,3 kilometr bo'lgan aylanma temir yo'l barpo etildi. Noyabr oyida esa 6,2 kilometrlik temir yo'l kapital ta'mirlandi.

Kon boshqarmasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilarni kamaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va yashil hududlarni kengaytirish maqsadida, "Yashil makon" umummilliy

loyihasi doirasida 2025-yil bahor va kuz mavsumida jami 83,7 ming dona sakso-vul, qayrag'och, tut, ligustrum, yasen, akatsiya va mevali ko'chatlar o'tqazildi. 3-gidrometallurgiya zavodiga tutash yo'l yoqasida 1,5 gektar yerda "Yashil belbog'" tashkil etildi. 3 va 5-gidrometallurgiya zavodlarida atmosfera qashlanadigan chang va gazlarni onlayn monitoring qiluvchi gazzathilchi qurilma hamda zavodlarning sanitar-himoya qismiga monitoring postlari o'rnatildi.

Mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yilligi arafasida 3-gidrometallurgiya zavodi hududida bo'sh turgan bino rekonstruksiya qilinib, bir vaqtning o'zida 900 nafar ishchi-xodimga xizmat ko'rsatadigan maishiy bino barpo etildi. Binoning har bir qavatidagi zamonaviy hammomlarga havo aylanish tarmog'i va isitish-shamollatish tizimiga yangi qurilmalar o'rnatildi. "Dovg'iztov" koni ishchi-xodimlari uchun 150 nafar xodimga mo'ljallangan, zamonaviy sharoitlarga ega yotoqxona, maishiy bino va 80 o'rinni oshxona qurilib, foydalanishga topshirildi. Konda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarimizni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida, 2 dona 5000 kubometr sig'imli

suv rezervuarlari qurildi. Uzluksiz sifatlari suv uzatilishi "Dovg'iztov" qo'rg'onida yashovchi aholi uchun Yangi yil bayrami tuhfası bo'ldi.

Barcha ishlarimiz Prezidentimizning hayotbaxsh islohotlariga uyg'un holda, inson qadri tamoyili asosida amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash joiz. Zero, amalga oshirilayotgan loyihalaridan asosiy maqsad ham xalqimizning og'irini yengil qilishga qaratilgan. Kombinat Bosh direktori Q.Sanaqulov tomonidan tasdiqlangan tashkiliy-texnikaviy chora-tadbirlar asosida, kon boshqarmasiga oliy ta'lim muassasasining 471 nafar bitiruvchilari, tuman aholisining Uchquduq tuman politexnikumini oxirgi ikki yilda tamomlagan 137 nafar farzandlari, shuningdek, "Kambag'alikdan – farovonlik sari" dasturi doirasida 76 nafar, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamiga mansub 80 nafar hamda yil davomida kon boshqarmasi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, turli kasblar bo'yicha o'tkazilgan tanlovlar doirasida 379 nafar fuqaro ishga qabul qilindi.

Loyiha va amalga oshirayotgan tadbirlarimiz korxona xodimlari uchun munosib va qulay mehnat sharoitlari-

ni yaratish, ularning hayoti xavfsizligini ta'minlash hamda salomatligiga qaratilgan. Bu borada, 1-Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi ko'makchimizdir. Kasaba uyushmasi muhim sanalar, kasb bayramlari, sport-sog'lomlashtirish tadbirlari asosida ishchi-xodimlarni rag'batlantirib bordi, yugurish marafonlari, futbol, voleybol musobaqalari, "Zakovat" intellektual o'yinlari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha viktorinalar tashkillashtirdi. Ular tomonidan sihatgohlar va dam olish maskanlariga berilgan yo'llanmalar bilan ko'plab ishchi-xodimlarimiz sog'lomlashtirilib, yangi kuch-quvvat bilan bo'linmalarimizda mehnat qilmoqdalar.

Jamoamiz yoshlari "Yilning eng yosh mutaxassisı", "Eng yaxshi yosh mexanik", "Eng yaxshi yosh texnolog", "Kibersport" tanlovları, "Biz yoshlar – korupsiyaga qarshimiz!", "Fidoyi yoshlar", "Yashil makon", "Ezgulik yo'ldi birlashaylik!" "Ogohlik – davr talabi" aksiyalarida faol ishtirok etishdi. Joriy yilning 4-6 noyabr kunlari Toshkent shahrida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual musobaqasida yoshlarimiz jamoasi faxrlı 2-o'rinni qo'lga kiritgani bizni behad quvontirdi.

Yil oxirlariganda, Shimoliy kon boshqarmasi va kombinatimiz xotin-qizlari, qolaversa, butun navoiyliklar nomidan "Yil ayoli" milliy tanlovining Respublika bosqichida ishtirok etgan xodimamiz Ramliya Rangova "Yilning eng yosh g'oyalar tashabbuskori" nominatsiyasi g'olibi bo'lgani – bu Shimoliy kon boshqarmasida erkaklar bilan bir safda mardonavor mehnat qilayotgan ayollarimiz ilmi, mehnati va tashabbuskorligining yuksak e'tirofi bo'ldi.

So'nggi yillarda, saxovatli Qizilqum zaminida ilm va mehnati bilan ma'dan qazib olayotgan jasur konchilarning ish sharoitlari tubdan yaxshilandi. Yangilashlar in'ikosı oldimizga yangi davrga munosib bo'lish talabini qo'yg'an. Shunday ekan, yangi – 2026-yilda ham ilimga asoslanib, g'ayrat-shijoat bilan ulgur rejalarini ro'yogba chiqaramiz. Shu quvonchli kunlarda barcha hamkasblarimizga Yangi yilingiz muborak bo'lsin, deymen.

Naim AMONOV,
Shimoliy kon boshqarmasi
direktori.



■ Sarhisob

ISHONCH VA MAS'ULIYAT HISSI

Jamoamizda har yili Yangi yilni zo'r ko'tarinkilik, mehnat yutuqlari, yangi maqsad va rejalar bilan kutib olish an'anaga aylangan. Yakunlanayotgan yil sinovli kelishiga qaramasdan, boshqarmamiz uchun tarixga muhrlashga arzigulik davr bo'lgani ayni haqiqatdir. Biz bugun 2026-yilni zafarlar, ezgu niyatlar bilan qarshi olmoqdamiz.



Yakunlanayotgan yilni sarhisob qiladigan bo'lsak, jamoamiz kuch-g'ayrati va jasorati bilan barcha ishlab chiqarish rejalarini sharafla bajarilishi kutilmoqda. Jumladan, ma'dan qazib olish rejasini 104 foizga, ma'danni qayta ishlash rejasini 102,7 foizga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish rejasini 103,4 foizga uddalashni mo'ljallab turibmiz.

Yutuqlarda "Pistali", "Qoraqo'ton", "Arslon-tov" konlari, 1 va 6-gidrometallurgiya zavodlari va boshqa bo'linmalarda mehnat qilayotgan to'rt ming nafardan ortiq ishchi-xodimlar, muhandis-texnologlardan har birining alohida hisssasi bor. Jamoamiz birdamligi, yuksak mas'uliyatni his etib kecha-yu kunduz olib borgan mashaqqatli mehnati ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga mustahkam zamin yaratdi. Buning barchasi kombinatimiz rahbariyati tomonidan ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, raqamlashtirish, quvvatlarni kengaytirish, boshqaruvni yoshlarga ishonib topshirish yo'lidagi sa'y-harakatlar natijasidir.

Ayniqsa, shu yilning 16 dekabr kuni 6-gidrometallurgiya zavodi jamoasi kombinatimiz korxonalari o'rtasida birinchilardan bo'lib oltin ishlab chiqarish bo'yicha yillik davlat buyurtmasini muddatidan oldin bajargani bayramga munosib sovg'a bo'ldi. Nurota zaminida yaqin yillarda qad rostlagan mazkur zavod qisqa davrda peshqadamlar safiga chiqib olgani barchamizni mamnun etadi.

Bizning sohada mahsulot tannarxini pasaytirish muhim o'rinni egallaydi. Birgina, joriy yilda aynan ushbu yo'nalishga birinchi darajali vazifa sifatida qarab, aniq chora-tadbirlar ko'rilgani natijasida 270,8 milliard. so'mlik mablag'ni tejashni ko'zlab turibmiz. Shuningdek, kon va texnologik ta'mirlash sexi tomonidan import o'rinni bosuvchi 56 turdagi 515 ta ehtiyot qismlari ishlab chiqarilib, joriy yilda 591,3 million so'mlik iqtisodiy foyda olindi.

Keyingi yillarda ishlab chiqarishni texnik ya-

ngilash, modernizatsiyalash hisobiga 1-gidrometallurgiya zavodida ma'danni qayta ishlash hajmini yiliga 1,9 million tonnadan, 6-gidrometallurgiya zavodi ishlab chiqarish quvvatini 5,1 million tonnadan oshirishga erishdik.

Joriy yilda amalga oshirilgan katta yengiliklardan biri, bu – noyabr oyida 6-gidrometallurgiya zavodi desorbsiya bo'limida faollashtirilgan ko'mirni desorbsiya qilish jarayonidan keyin hosil bo'ladigan ko'mir zarrachalarini qayta ishlash tizimi joriy etilganidir. Vaholanki, ilgari ushbu mahsulot qayta ishlash uchun 3-gidrometallurgiya zavodiga yuborilar edi. Bu, vaqt, sarf-xarajat, mablag'larni tejash imkonini berdi.

Yaqinda 6-gidrometallurgiya zavodi desorbsiya bo'limida oltin tarkibli katod cho'kindisi hamda graviokonsentratning magnit fraksiyasini kislotali ishlodvan o'tkazish uchun mo'ljallangan texnologik uzal ishga tushirildi. Mazkur texnologik yechim katod cho'kindisining tozalik darajasini oshirish va uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni ta'minladi.

Ma'lumki, yurtimizda yashil energetikani joriy etish, bu borada iqtisodiy tejankor loyihalarni tadbir etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunga javoban, boshqarmamizda qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1 va 6-gidrometallurgiya zavodlari, "Qoraqo'ton" koni maydonlarida quvvati 2900 kVt bo'lgan fotoelektrostantsiyalar ishlab turibdi. Bu nafaqat elektr sarfini kamaytirishga, balki energiya manbalari diversifikatsiyasiga ham xizmat qilmoqda.

So'nggi yillar davlatimiz rahbari ko'magida kombinatimiz uchun yuksalish davri bo'ldi. Rivojlanish odimlari bizning boshqarma tarkibidagi bo'linmalar uchun ham taraqqiyot davrini boshlab berdi. Jumladan, keyingi yillarda "Daykali", "Baxtili", "Qorator", "Qumsoy", "Qoraqo'ton", "Pistali" konlarida ochiq hamda yer osti ishlari ko'lamini kengaytirish yo'lidagi olib borilgan ishlar yangi qazilma boylik maydonlarini ishga tushirish imkonini berdi. Masalan, joriy yilda "2-G'arbiy Pistali" koni foydalanishga topshirildi, "Qoraqo'ton" koni 51-ma'dan tanasining g'arbiy qismida ochish ishlari boshlab yuborildi.



Ma'dan qazib olish va qayta ishlash ko'rsatkichlarini yanada oshirish maqsadida, kelgusi yilda "Beshquduq", "Qopqoqli", "Oltin diyor", "Bo'ztov", "Yilsoy", "Baxtili", "Tulkitov" va "Qumsoy" konlari hududlari atroficha o'rganiladi. Bundan maqsad - ushbu maydonlarda ochiq va yer osti kon ishlari kengaytirish imkoniyatlarini yaratishdan iborat.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash va transport vositalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, kombinat tomonidan muhim tashkiliy o'zgarishlar amalga oshirilmogda. Xususan, 2026-yil 1-yanvardan 3-avtobaza, boshqarmamiz tarkibidagi 8-avtobaza va avtotransport uchastkasi birlashtirilib, "Qizilqum" kon boshqarmasi tarkibida Avtomobil transport boshqarmasi tashkil etilmoqda va bu yangi tuzilma 1152 ta shtat birligini o'z ichiga oladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - avtotransport xizmatlarini markazlashtirilgan holda boshqarish, ishlab chiqarishdagi logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda yo'l-transport harakatining samaradorligini yanada oshirishdir.

Bugungi kunda jamoamizning 30 foizini zamonaviy bilimga ega, ilm sirlarini puxta egallagan yoshlar tashkil etadi. Ular ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida, ilmiy-tadqiqot ishlari, innovatsion loyihalar, ratsionalizatorlik takliflarini ishlab chiqish va boshqa yo'nalishlarda tashabbuskorlik bilan faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Oldimizda ulkan marralar turibdi. Kelayotgan yilda ham mas'uliyatni zimnamizga olib, oldingi saflarda bo'lish, kombinat rivojiga munosib hissa qo'shish biz uchun yuksak sharaftir. Nasib bo'lsa, kirib kelayotgan 2026-yilda jamoamiz bilan ulkan marralarni zabt etamiz.

Mashaqqatli va sharaflil kasb sohiblari – konchi va metallurglarni, qimmatbaho metal ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan barcha ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarni Yangi yil bayrami bilan qizg'in tabriklayman.

Oldimizda ulkan marralar turibdi. Kelayotgan yilda ham mas'uliyatni zimnamizga olib, oldingi saflarda bo'lish, kombinat rivojiga munosib hissa qo'shish biz uchun yuksak sharaftir. Nasib bo'lsa, kirib kelayotgan 2026-yilda jamoamiz bilan ulkan marralarni zabt etamiz.

Mashaqqatli va sharaflil kasb sohiblari – konchi va metallurglarni, qimmatbaho metal ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan barcha ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarni Yangi yil bayrami bilan qizg'in tabriklayman.

Avazxon EZOZXONOV, "Qizilqum" kon boshqarmasi direktori.



450 METR YER QA'RIDAGI SUHBAT

◀ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

To'plangan suv qariyb belni urishi va biz kiyib olgan rezina etiklar tizzamizni ham bo'y-lamasligi sabab ularning suhbatini yakunlanishini kutishga majbur bo'ldik.

BIZDA BARCHA KUCH VA IMKONIYATLAR YETARLI

Suhbat uchun vaqt ajratganingiz uchun rahmat! Yil boshida oldirlaringizga qo'ygan maqsadlaringizga erishingizlarmi?

– Maqsadlarga erishishga intildik. Janubiy kon boshqarmasining iqtisodiy ko'rsatkichlari avvalgi yillarga nisbatan oshdi. Oltin ishlab chiqarish bo'yicha yillik davlat buyurtmasini muddatidan ancha ilgari – 16-dekabrda sharafl bilan bajardik. Barcha erishgan yutuqlarimiz jamoamizning katta mehnati va kombinat rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi hamda ko'magida qo'lga kiritildi.

– Tolliboy Norboyevich, o'tayotgan 2025-yilda Janubiy kon boshqarmasi hayotidagi eng muhim yangilik sifatida nimani aytgan bo'lar-dingiz?

– Yil davomida Janubiy kon boshqarmasi hayotida salmoqli o'zgarishlar, yangiliklar bo'ldi. Kon boshqarmasining 18 ta bo'linmasida olti mingga yaqin malakali mutaxassis, ishchi-xodimlari birdamlikda o'z oldiga qo'ygan maqsad sari samarali mehnat qilishmoqda. Korxonani rivojlantirish, faoliyat samaradorligini oshirish borasida ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi" bo'yicha olib borilgan ishlar natijasiga ko'ra mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, energoresurslar, xomashyo va materialardan samarali foydalanish, texnologik jarayonlarda yo'qotishlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish yo'li va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga ancha mablag' tejallishga erishildi.

Eng muhim yangilik: "Zarmitan oltin-ruda zonasi konlari negizida kon-ruda kompleksining quyi sathlarini (0,00 m gacha) o'zlashtirish" investitsion loyihasi doirasida joriy yilning aprel oyida "Zarmitan" konida zamonaviy muhandislik inshooti – diametri 6,5 metr va chuqurligi 1 000 metr bo'lgan "Skipli" shaxta stvoli ishga tushirildi. Ushbu stvol ishga tushirilishi ma'dan tashish unumdorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish bilan birga 90 ta yangi ish o'ini va korxona uchun qo'shimcha qiymat yaratish imkonini berdi. Ayni paytda mazkur inshoot yordamida bir sutkada 1,6 ming tonnagacha ma'dan yer ostidan yer yuzasiga olib chiqilmoqda.

– Yirik, ta'bir joiz bo'lsa, respublika ahamiyatidagi loyiha haqida gapiraysiz. Ko'pchilik uchun qiziq: loyiha haqida to'liqroq gapirib bersangiz.

– Mazkur loyiha O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu stvol ishga tushirilishidan keladigan yillik iqtisodiy samaradorlik 44,5 mlrd. so'm, deb baholanoqda.

Skipli stvol o'zimi nima? Skipli stvol – yer osti konlarida qazib olingan ma'danni yer yuziga ko'tarish uchun maxsus loyihalashtirilgan vertikal shaxta stvoli sanaladi. Uning asosiy vazifasi yukni tez, samarali va xavfsiz tashishdan iborat. "Zarmitan" konining turli yer osti sathlarida qazib olinayotgan ma'dan endi +240 metr sathda yig'ilib, markazlashgan holda yer yuzasiga tashib chiqariladi. Mazkur loyiha skipli va klet shaxta ko'tarish qurilmalaridan iborat. Yer yuzasiga chiqarilgan ma'dan 4-sonli gidrometallurgiya zavodiga qayta ishlash uchun yetkaziladi. Klet qurilmasi esa ishchi-xizmatchilar va kerakli jihozlarni yer osti sathlariga olib tushish hamda olib chiqishga mo'ljallangan. Eng muhimi, ushbu qurilmalar xavfsiz va tejankor.

Shaxta stvollarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida to'liq raqamlashtirilgan. Butun faoliyati markaziy operatorlik puli orqali boshqariladi. Ular yordamida ish jarayonlari doimiy kuzatilib, yuk tashish aniq hisobotlar orqali monitoring qilib boriladi. Bundan tashqari, ogohlantiruvchi signallar orqali har qanday holatning oldini olish imkoniyati ham mavjud.

– Yaqinda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining "nkmk.uz" saytida "Zarmitan" konida chuqurligi 1000 metrga yetkazilgan shaxta stvollarini soni yana bittaga ko'payib, ular ikkita ga yetdi", deya xabar tarqaldi. Chuqurligi ming metrga yetkazilgan "Asosiy" shaxta stvoli nima, u qanday vazifani amalga oshiradi? Bu stvolni chuqurlashtirishdan maqsad nima?

– "Asosiy" shaxta stvoli yer yuzasidan 450 metr chuqurlikkacha tushardi. Uni 1000 metrgacha chuqurlashtirish biz uchun nafaqat zarurat, balki iqtisodiy manfaatdorlik prinsipiga aylangandi. Nega desangiz, shaxtyorlar, kerakli materiallar

va jihozlarni "Kapital" shtolnyasi orqali shaxtaga tushirib-chiqaradigan "Asosiy" shaxta stvoli yer osti suvlarini yer yuzasiga haydash, shaxtani toza havo oqimi bilan ta'minlash va shaxtadan tog' jinslarini chiqarish zaruratiga aylangandi. Va biz bugunga kelib, bu stvoldan shu maqsadda ham foydalanishni boshladik. Hozir ikkalamiz suhbatlashayotgan mana shu yerda va yer sathidan ming metr pastda suv chiqarish komplekslari qazilib, mustahkamlandi. Eng asosiysi, sig'imi 2,2 kubometr vagonetkalar yordamida yiliga 300 ming tonna tog' jinsini yer yuzasiga olib chiqish, shuningdek 1000 metr sathgacha bo'lgan zaxiralarni qazib olish va undan chuqurlikda joylashgan istiqbolli zaxiralarni o'rganish va baholash imkonini yaratdi.

Yana bir gap, Navoiy kon-metallurgiya kompaniati va Chexiya Respublikasining "Mine Construction Alliance s.r.o." kompaniyasi mutaxassislari



hamkorligida "Skipli" va "Asosiy" shaxta stvollarini ming metrluk chuqurlikda, ya'ni 0,00 metr sathda o'zaro tutashirildi. Bu esa, o'z navbatida, "Zarmitan" konida yer osti lahimlarini toza havo bilan ta'minlashni yaxshilaydi hamda zaxira chiqish yo'lagi vazifasini bajarmoqda.

– Demak, "Asosiy" shaxta stvoldan yer osti suvlarini tepaga olib chiqish maqsadida xam foydalanilar ekan-da?!

– Shunday!

– Guvohi bo'ldik, anchagina suv yig'ilarkan. Bu suvni shunchaki tepaga chiqarib tashlay-sizlarmi yoki undan foydalanasizlarmi?

– Suvdan oqilona foydalanish maqsadida o'tgan yili "Zarmitan" koni hududida uch bosqichli suv tindirgich qurib foydalanishga topshirilgandi. Har bir tindirgich 500 kubometr, jami 1 ming 500 kubometr sig'imga, umumiy quvvati 4 ming 500 kubometrga ega. Uch bosqichli tindirgichda tindirilgan suvning asosiy qismi "Zarmitan" koni shaxtalariga yetkazib beriladi. Qolgani esa, "Yashil makon" dasturi doirasida ekilgan daraxtlarni sug'orishga va 4-sonli gidrometallurgiya zavodi texnologik jarayonlarida foydalanish uchun sarflanadi. Joriy yilning 11 oyida 229 ming 635 kubometr texnik suv zavodga yetkazib berildi.

Bunday suv tindirgichlar "G'ujumsoy" konida ham mavjud. Bizning "Zarmitan" va "G'ujumsoy" konlarimiz va zavodimizga suv 26 kilometr olisdagi "To'sinsoy" suv omboridan quvurlarda yetkaziladi. Bu ikkala suv tindirgich majmualarining ishga tushirilishi yiliga 1 152 ming kubometr suvni iqtisod qiladi.

– Bugungi davr rahbarlardan har bir xodimga munosib hayot tarzini yaratishni ham talab qilmoqda. Kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga 2025 yilda yaratilgan imkoniyatlar haqida gapirib bersangiz.

– O'tgan 2024-yili "Zarmitan" konida 500 kishilik ikkita maishiy bino va 80 o'rinni oshxona barpo etgan bo'lsak, joriy yilda 2 ta to'rt qavatli, jami 64 xonadondan iborat xizmat uyi foydalanishga topshirildi. Kam ta'minlangan yosh oilalar vakillarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, soha xodimlari o'rtasida "O'zbekiston bo'yab sayohat qili" shiori ostida tarixiy maskanlar va diqqatga sazovor joylarga sayohatlar uyushtirish, mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish ishlari amalga oshirib kelinoqda.

– Kelgusidagi rejalaringiz qanday? – Bugun yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar shiddat bilan amalga oshirilmoqda. Boshqarmamizda bugungi kunda qariyb olti mingga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qilishmoqda. 2011-yili 1810,7 ming tonna ruda qazib olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 3 077,8 ming tonnaga yetdi yoki ruda qazib olish 2011 yilga nisbatan qariyb 1,7 martaba ko'paydi. Yer osti kon lahimlarini qazib o'tish ishlari 2011-yil oxirigacha 16,5 kilometr bajarilgan bo'lsa, 2025-yilning bugungi kuniga qadar 58,5 kilometrga yetkazildi.

Yurtimiz iqtisodiyotida korxonalarimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'ini naqadar beqiyosligini chuqur his etib, ish sur'atini bir muddat ham tushirganimiz yo'q. Bor imkoniyatlarni ishga solib, belgilangan rejalarni ortig'i bilan ado etish bosh maqsadimizdir. Buning uchun bizda barcha kuch va imkoniyatlar yetarli.

Fursatdan foydalanib, kombinat tizimida mehnat qilayotgan, kasbiga sadoqatli barcha fidoyi insonlarni Yangi yil bayrami munosabati bilan qutlayman.

Suhbatni Mansur HUSANOV yozib oldi.

YANGI MARRALAR SARI

Zavodimiz Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yirik bo'linmalaridan bo'lib, mahalliyashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha respublikamizda yetakchi korxonalardan hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan sa'y-harakatlar, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, mahsulot turlarini oshirish, sifatini yaxshilash natijasida zavodimiz Markaziy Osiyodagi yirik og'ir mashinasozlik korxonasiga aylandi.

Bugungi kunda zavodimizda 11 ta sex, 5 ta uchastka, 3 ta laboratoriya, shuningdek, Taxiastosh metallo-konstruksiyalar va nostondard jihozlar ishlab chiqarish zavodi, Termiz mexanika zavodi, Nurobod mexanika zavodlari kabi tarkibiy bo'linmalar bo'lib, 3,4 ming nafar ishchi-xodim, muhandis-konstruktorlar mehnat qilmoqda. Bo'linmalarimizda ishchi-xizmatchilarimizning unumli mehnat qilishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar muhayyo etilgan.

Keyingi yillar korxonamiz uchun haqiqiy rivojlanish davri bo'ldi, metal quyishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan uzluksiz tizim yo'lga qo'yildi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo'linmalari ehtiyojlarini o'rganish, eng muhimi, kombinat rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi tufayli mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirib, mahsulotlarimiz nomenklaturasini 15 ming turdan oshirishga, erishdik. Vaholanki, bu ko'rsatkich 1991-yilda 4,1 ming turda bo'lgan. Mahsulot turlarining ko'paytirilishi iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishida ham o'z ifodasini topmoqda. Buni raqamlarda aytadigan bo'lsak, kor-

xonamiz yillik ishlab chiqarish quvvati o'rtacha 1,6 trillion so'mga yetdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi kunda ishlab chiqarayotgan raqobatbardosh va xalqaro standartlarga to'la javob beradigan mahsulotlarimizning 98 foizi kombinat ehtiyojiga yo'naltirilmoqda. Ayniqsa, mutaxassislarimizning ulkan salohiyati bilan yirik hajmdagi tegirmonlar ishlab chiqarishni o'zimizda yo'lga qo'yganimiz va to'liq o'zlashtirganimiz, buning samarasi o'laroq katta miqdorda mablag'lar iqtisod qilina-yotgani oltmish bir yillik tarixiga ega korxonaga faoliyatida e'tirofqa molik voqeadir.

Misol uchun, hajmi 140 kubometr bo'lgan sharli tegirmonni chetdan xarid qilishning dunyo bozoridaqi import narxi 6 million dollarga teng. Bizda esa kon-metallurgiya sohasi uchun juda zarur bo'lgan shunday tegirmon teng yarim narxida ishlab chiqarilayotgi. 2024-yilda 2-gidrometallurgiya zavodiga tayyorlab bergan tegirmondan 2,5 million dollardan ortiq valuta iqtisod qilingani fikrimizning isbotidir.

Zavodimizda ishlab chiqarish sur'atini oshirishda qiymati 25,1

million dollar bo'lgan ikkita yangi loyiha katta ahamiyatga ega bo'ldi. "Mexanika-yig'uv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash (1-bosqich)" mexanika-yig'uv sexi va qo'y-machilik sexida investitsion loyiha asosida foydalanishga topshirilgan 25 tonnalik zamonaviy pech shular jumlasidandir. Mexanika-yig'uv sexining ishga tushirilishi og'irligi 980 tonnagacha bo'lgan tegirmonlar, og'irligi 400 tonnagacha bo'lgan yirik o'lchamdagi jihozlarga ishlov berish, yangi pech esa metall eritish quvvatini 10 ming tonnaga oshirish imkonini berdi. Kiritilayotgan yutuqlarimiz haqida so'z borarkan, keyingi yillarda mahalliy ishlab chiqarishchilar bilan sanoat kooperatsiyasi doirasida aloqalarimiz yildan-yilga kengayib borayotganligini ta'kidlash lozim.

2025-yilda umumiy qiymati qariyb 1 trillion 112 milliard so'm bo'lgan 103 loyiha bo'yicha mahalliyashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni mo'ljallaganmiz. Yil davomida yangi turdagi metall kesish dastgohlari, turli rusumli sharli tegirmonlar, ekskavatorlar uchun reduktor va kovshlar, gidrometallurgiya zavodlari uchun nostrandant uskunalar va ehtiyot qismlar ishlab chiqarildi. Kelgusi yildagi rejalarimiz yanada yuksak 2026-yilda 110 loyiha bo'yicha umumiy qiymati

1 trillion 344 milliard so'm bo'lgan mahalliyashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'zda tutilgan.

Biz kelgusida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini yanada ko'paytiramiz. Buning uchun yuqori aniqlikda ishlaydigan



8 ta zamonaviy stanoklar xarid qilish mo'ljallagan. So'nggi rusumdagi stanoklarning foydalanishga topshirilishi nafaqat ish ko'lamini kengaytirish, balki yangi ish o'rinlarini yaratishda ham keng sharoitlar yaratadi. Demak, ijtimoiy muammolarni hal etishga ham poydevor yaratiladi.

Bir so'z bilan aytganda, jamoamiz bilan hamjihatlikda marrani yanada baland olib, izlanish va intilish, yuksak samaradorlikka ega yangiliklar yaratish yo'lidagi dadil ilgari lab boraveramiz.

Kelgusida zimnamizda mas'uliyatli va sharaflil vazifalar turibdi. Belgilangan rejalarni o'z vaqtida bajarib, kombinat yutuqlariga munosib hissa qo'shamiz.

Barcha yurtdoshlarimiz, aziz hamkasblarimizni Yangi yil bayrami bilan qutlar ekanman, ularga sog'liq, baxt-saodat, xonadonlariga qut-barakat tilayman.

Jahongir HAYITOV, Navoiy mashinasozlik zavodi direktori.

Yil voqealari qisqa satrlarda

“NKMK” AJning 500 million AQSh dollariga teng besh yillik korporativ obligatsiyalari 6,75 foiz daromadli shartlarda London fond birjasida muvaffaqiyatli chiqarildi va joylashtirildi.

“NKMK” AJ Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish sohasidagi eng yirik xalqaro tashabbusi – Global kelishuviga qo’shildi. BMTning Global kelishuvi inson huquqlari, mehnat munosabatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va korruptsiyaga qarshi kurashish bo’yicha universal tamoyillarga amal qiladigan kompaniyalarni birlashtiradi. Kombinat BMTning Global kelishuviga qo’shilganligi kompaniyaning o’z faoliyatiga mazkur kelishuvning 10 ta tamoyiliga rioya qilishi, korporativ boshqaruvni takomillashtirishi, shaffoflikni oshirishi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini integratsiya qilishga intilishini aks ettiradi.

25-avgust kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining o’ttiz to’rt yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to’g’risida”gi Farmoniga muvofiq, “Qizilqum” kon boshqarmasi “Pistal” koni bosh muhandisining o’rinbosari Qudratov O’ktam Aralovich “O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni, Markaziy kon boshqarmasi sex uchastka ustasi Xidirov Lochin Shopo’lotovich “Mehnat shuhrati” ordeni, 3-avtobaza boshlig’i Tursunov Rashit Raxmonovich “Do’slik” ordeni, Shimoliy kon boshqarmasi direktori Amonov Naim Nasimovich “Shuhrat” medali, Markaziy kon boshqarmasi “Muruntov” koni uchastka portlatuvchisi Yodgorov Shuhrat O’razbayevich “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy”, Uchquduq shahridagi “Uchquduq” madaniyat saroylarida, Qo’shrabot tumanidagi Zarkent qo’rg’onida Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma’muriyati va NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan ishchi-xodimlar va ularning oila a’zolari uchun O’zbek milliy maqom san’ati markazi Navoiy viloyati hududiy bo’limining “Nazm va navo gulshani” nomli konsert dasturlari namoyish etildi.

Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag’ishlab “Aravo” kon-metallurgiya kombinati” AJ, “NKMK jamg’armasi” DM, “Navoiyuran” DKda ishlaydigan xotin-qizlar o’rtasida “NKMK oltin ayoli” ko’rik-tanlovining final bosqichi o’tkazildi.

1-mart kuni “NKMK” AJ boshqarmasida Navoiy kon-metallurgiya kombinati yosh ishchi-xodimlari o’rtasida 2024-yilda o’tkazilgan “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovi g’oliblarini taqdirlash tadbiri o’tkazildi.

“Farhod” madaniyat saroyida joriy yilning 17-20-aprel kunlari “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “NKMK jamg’armasi” DM va NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan NKMK madaniyat muassasalari ijodiy jamoalari o’rtasida “Qizilqum san’at g’unchalari - 2025” bolalar festival-tanlovi o’tkazildi.

10-11-may kunlari Toshkent shahridagi O’zbekiston kasaba uyushmalari saroyida Navoiy kon-metallurgiya kombinati madaniyat muassasalari badiiy jamoalarining “Qizilqum javohirlari” konsert dasturi bo’lib o’tdi.

Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” madaniyat saroyida O’zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kuni va Zarafshon qurilish boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligi keng nishonlandi.

24-oktabr kuni Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 3-gidrometallurgiya zavodi tashkil topganligining 30 yilligiga bag’ishlangan bayram tadbiri o’tkazildi.

Toshkent shahrida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan an’anaviy ravishda o’tkazilib kelinayotgan “Eng namunalı tuman va shahar” hamda “Eng namunalı vazirlik va idora” tanlovlari g’oliblarini taqdirlash marosimi bo’lib o’tdi. “Eng namunalı vazirlik va idora” tanlovi natijalariga ko’ra “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ 30 ta vazirlik va idora orasida 3-o’ringa sazovor bo’ldi.

11-dekabr kuni Navoiy viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda “NKMK” AJ va “Navoiyuran” DK Favqulodda vaziyatlar markazi xodimlari tomonidan “NKMK” AJ boshqarmasi ishchi-xodimlariga yong’in xavfsizligi talablariga rioya qilish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi hamda yong’inlar va is gazidan zaharlanishni oldinish olish borasida profilaktik ishlar olib borildi. Tadbir doirasida yong’in-qutqaruv texnikalari hamda vositalarining ko’rgazmali namoyishi o’tkazildi.

■ Sarhisob

BUNYODKORLIK – YUKSAK SHARAF

Bugun O’zbekiston zaminida yangilanish va bunyodkorlik ruhi hukm surmoqda. Yurtimizning barcha hududlarida qad rostlayotgan zamonaviy inshootlar, kengayib borayotgan shahar va qishloqlar, barpo etilayotgan sanoat majmualari xalqimiz mehnati hamda davlat siyosatining amaliy ifodasidir. Ayniqsa, so’nggi sakkiz yilda qurilish sohasida erishilgan salmoqli natijalar mamlakatimiz taraqqiyot yo’lidan qat’iyat bilan borayotganini yaqqol namoyon etmoqda.



Bu jarayonlarda o’z kasbiga sadoqatli, mahoratli quruvchilarning hissasi beqiyos. Ular barpo etayotgan har bir inshoot, har bir korxona va ijtimoiy obyekt zamidra mashaqqatli mehnat, fidoyilik va mas’uliyat mujassam. 2025-yil

ana shu bunyodkorlik, mas’uliyat va yangilanish ruhi bilan tarix sahifalaridan munosib o’rin olmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan qabul qilingan keng ko’lamli islohotlar va davlat dasturlari mamlakatimiz sanoat salohiyatini yuksaltirish hamda aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yaratilgan qulay investitsiya muhiti va zamonaviy infratuzilma sharoitlari natijasi-da keyingi yillarda kombinat tizimida qator yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ushbu loyihalar doirasida zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan to’rtta yangi zavod va bir qator ishlab chiqarish tarmoqlari ishga tushirildi. Ishlab chiqarish uskunalarini montaj qilish, texnologik jihozlarni ishga tushirish va binolarni barpo etish ishlari bir vaqtning o’zida, o’zaro muvofiqlashgan holda amalga oshirilmogda. Bu esa loyihalarni qisqa muddatlarda foydalanishga topshirish imkonini bermogda.

So’nggi yillarda Zarafshon qurilish boshqarmasining moddiy-texnika bazasi izchil ravishda mustahkamlandi. Keyingi besh yilda 200 dan ortiq zamonaviy texnika va mexanizmlar-

ning keltirilishi qurilish ishlari sur’atini sezilarli oshirdi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan keyingi sakkiz yil mobaynida umumiy qiymati 3 milliard AQSh dollariga teng bo’lgan 27 ta yirik investitsion loyiha muvaffaqiyatli tarzda hayotga tatbiq etildi. Jumladan, Muruntov konining “Shimoliy-Sharqiy majmuasida maydalash va tashish nuqtasini chuqurlashtirish” loyihasi, Shimoliy kon boshqarmasida Biooksidlash sexi, shuningdek, “Dovg’istov” va “Qoqpatas” oltin konlarida ruda qazib olishning III bosqichi” doirasidagi ishlar yuqori sur’atlarda amalga oshirilmogda. Janubiy kon boshqarmasiga qarashli Zarmitan konida “Skipli” vertikal mili qurilishi, Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalari tasarrufidagi gidrometallurgiya zavodlarida mavjud hamda yangi “Chiqindilar saqlash omborxonalarini kengaytirish” loyihalari ham shular jumlasidandir. Ayni paytda 5, 6 va 7- gidrometallurgiya zavodlarida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli qurilish-montaj ishlari ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirish, texnologik jarayonlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qilmogda.

Amalga oshirilgan ishlar aniq raqamlarda ham o’z ifodasini topmogda. 2023-yilda 78,2 million dollarlik, 2024-yilda esa 92,8 million dollarlik qurilish-montaj ishlari bajarildi. Joriy yilda bu ko’rsatkich 125,1 million dollarga yetkazilishi kutilmogda.

So’nggi 2020-2024-yillarda Zarafshon qurilish boshqarmasi quruvchilari tomonidan umumiy qiymati 408,0 million AQSh dollariga teng

bo’lgan 24 ta yirik loyiha muvaffaqiyatli uddalanayotganini alohida e’tirof etish lozim. Joriy yilning 10 oyi davomida jami 113,2 mln. dollarlik qurilish-montaj ishlari bajarildi. Bu ko’rsatkich o’tgan yilning mos davriga nisbatan 123 foizni tashkil etib, boshqarma faoliyatida barqaror o’sish va yuqori ishlab chiqarish salohiyati mavjudligini yaqqol namoyon etmogda.

Kelgusida ham davlatimiz rahbari belgilab bergan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, investitsion loyihalarni sifat va samaradorlik asosida amalga oshirish, sanoat salohiyatini yanada mustahkamlash yo’lida bunyodkorlik ishlari izchil davom ettiriladi. Bu euzu sa’y-harakatlar Yangi O’zbekistonni barpo etishdek ulug’ maqsadga xizmat qilishi shubhasiz.

Yangi yil bayrami arafasida yurt ravnaqi yo’lida fidokorona mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz, jumladan bunyodkor quruvchilarimizni chin qalbindan tabriklayman. Kelgusi ishlaringiz yanada barokatli bo’lsin, deymen.

Otabek HASANOV,
Zarafshon qurilish boshqarmasi boshlig’i.

■ Bilib qo’yan yaxshi

Kuz va qish fasli — tabiatdagi o’zgarishlar, havo sovishi va organizmning yangi sharoitlarga moslashish davri. Bu paytda shamollash, gripp va boshqa kasalliklar tez-tez uchraydi. Shu sababli immunitetni mustahkamlash uchun to’g’ri ovqatlanish juda muhim. Salqin kunlarda turli vitamin va minerallarga boy mahsulotlarni ratsionimizga qo’shish organizmni sovuqqa va viruslarga chidamli qiladi. Bu esa sog’lom va serunum kunlar o’tkazish uchun asosiy qadam hisoblanadi. Quyida kuz, qish faslida organizmni qo’llab-quvvatlaydigan 5 asosiy mahsulot haqida to’xtalamiz.

IMMUNITETNI MUSTAHKAMLOVCHI 5 MAHSULOT

ASAL

Mazkur tabiat ne’mati qadimdan tabiiy dori sifatida qadrlanadi. Unda immun tizimini mustahkamlovchi fermentlar va mikroelementlar ko’p. Kuniga 1-2 qoshiq asal iste’mol qilish organizmni shamollashdan himoya qiladi, tomoq va yo’talni yumshatadi.

SARIMSOQ

Sarimsoq tabiiy antibiotik hisoblanadi. Undagi alitsin moddasi virus va bakteriyalarni yo’qotishga yordam beradi. Sarimsoqni salat, sho’rva yoki issiq ovqatlarga qo’shib iste’mol qilish foydali.

SITRUS MEVALAR

(APELSIN, LIMON, MANDARIN)

Sitrus mevalar C vitamini manbai bo’lib, u immunitetni mustahkamlashda asosiy o’rin tutadi. Limonli choy ichish, yangi siqilgan apelsin sharbatini iste’mol qilish sovuq kunlarda organizmni quvvatlantiradi va shamollashning oldini oladi.

QIZIL LAVLAGI

Lavlagi qondagi gemoglobin miqdorini oshiradi, jigar faoliyatini yaxshilaydi va organizmni toksinlardan tozalashga yordam beradi. Shu bilan birga undagi vitamin va minerallar immunitetni kuchaytiradi. Uni qaynatib, salatga aralashtirib yoki sharbat shaklida iste’mol qilish mumkin.

YONG’OQ VA URUG’LAR

Bodom, yong’oq, pista, kungaboqar urug’i va zig’ir urug’i omega-3 yog’ kislotalariga boy. Ular miya faoliyatini yaxshilaydi, energiya beradi va immunitetni mustahkamlaydi. Har kuni bir hovuch yong’oq iste’mol qilish charchoqqa qarshi samarali vosita hisoblanadi.

AN’ANA VA YANGILANISH UYG’UNLIGI: NKMK madaniyat muassasalarining samarali faoliyati

Har bir millatning madaniyati va san’ati uning xalq sifatidagi qadr-qimmatini belgilab beruvchi asosiy omillaridan biridir. Har bir xalq jahon tamaddunida o’ziga xos o’rin egallashi, avvalo, uning madaniy merosi, san’atining nechog’lik darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Zero, madaniyat inson tafakkuri, dunyoqarashi va ma’naviy olamining shakllanishida beqiyos o’rin tutadi.



“Buxoro zardo’zligi” to’garagining 24-fevralda Angliyaning London hamda 6 mart kuni Fransiya davlati Parij shahrida rasmiy xalqaro tanlovda onlayn ishtirok etgan 2 nafar o’quvchisi II darajali va I darajali diplomlar bilan mukofotlanishdi.

Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” madaniyat saroyi “Afsona” milliy raqs ansambli rahbari Y.Istamov o’quvchilari bilan “Astana Stars” international birlashmasi tomonidan tashkil etilgan “Toshkent music festival” III xalqaro ko’rik tanlovida faol qatnashib, “Milliy raqs” va “Xalq uslubi” yo’nalishlari bo’yicha 1-o’rinni egallashdi. “Rodnichok” xalq raqslari ansambli rahbari Y.Yuzefovich Rossiya davlati Omsk shahrida Markaziy Osiyo hududi yosh liderlari o’rtasida o’tkazilgan Y-yoshlar forumida “Eng faol forum ishtirokchisi” sertifikatini qo’lga kiritdi.

“Uchquduq” madaniyat saroyining Y.Kolevatova rahbarligidagi “Ekspressiya” estrada raqs jamoasi katta guruhi 27-28-mart kunlari Samarqand shahrida bo’lib o’tgan “Art silk way” xalqo tanlovida, jamoaning kichik guruhi 27-29-noyabr kunlari Toshkent shahrida bo’lib o’tgan “Iqtidorli bolalar” xalqaro tanlovida Gran pri mukofotiga munosib o’rildi.

Zafarobod qo’rg’onining madaniy “yuragi” hisoblangan “Yoshlik” MSM yoshlari ham qator muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Toshkent shahrida 27-29-mart sanalarida bo’lib o’tgan “Musiga tasviri” xalqaro ko’p janrli tanlovida G.Utegenova rahbarligidagi “Tabassum” raqs ansambli Gran pri, J.Turganbayeva rahbarlik qilayotgan “Shok” raqs ansamli Toshkent shahrida o’tkazilgan “Vostorg” xalqaro tanlovida 1-o’rin, “Tansuy vsey dushoy” xalqaro tanlovida esa Gran pri sohibi bo’lib qaytishdi. “Zebo” raqs ansambli ham Toshkentda “Konkurs talantov” xalqaro ko’p janrli tanlovida Gran pri mukofatini egalladi. “Yoshlik” MSMning xushovoz xonadasi Roza Rajabova “Virtuosos of Tashkent” xalqaro tanlovida Gran pri sohibasi bo’ldi.

2025-yilda “Farhod” madaniyat saroyida “NKMK” madaniyat muassasalari ishtirokidagi “Qizilqum san’at g’unchalari - 2025” festivali, “Qizilqum javohirlari - 2025” IV an’anaviy ijrochilik ko’rik tanlovi o’tkazildi. Ko’rik tanlovni oqilona baholash uchun taniqli san’atkorlar jalb qilinib, ular tomonidan mahorat darslari ham o’tkazil-

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro’yxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy ko’chasi, 27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg’armasi” DM bo’linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo’yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko’chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Azamat ZARIPOV**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog’oz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 600. 2025-yil 26-dekabr 17:00 da chop etishga topshirildi.